

TURKCHA JURNALISTIKA TERMINLARI TARKIBIDAGI G‘ARB TILLARIDAN O‘ZLASHGAN AFFIKSLARGA DOIR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10366824>

DSc. Xayrulla HAMIDOV,

TDSHU professori v.b., Toshkent, O‘zbekiston.

Tel: 90 960 06 23; E-mail: hamidovx@gmail.com

Arzu KARAUSTA, TDSHU 2-kurs mag-nti, Turkiya

Tel: +998 90 826 09 35.

Annotatsiya. Hozirgi turk adabiy tilining shakllanishi tarixiga nazar tashlanganda, tilga tashqaridan ta’sir, asosan, XX asrning 20-yillarigacha bo’lgan davrda kuzatilgan. Bu davrgacha juda ko’p sinovlar, turli islohotlarni o’z boshidan kechirgan turk tili Turkiya Respublikasi tashkil etilgandan keyin jamiyatda amalga oshirilgan qator jiddiy islohotlar orasida muhim o’rin olgan «Til inqilobi» (Dil Devrimi) natijasida yangi davrga qadam qo’ygan. Ushbu maqolada turkcha jurnalistika terminlari tarkibidagi g‘arb tillaridan o‘zlashgan affikslar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: affikslar, o‘zlashmalar, termin, yunon alifbosi, turk alifbosi, jurnalistika.

Аннотация. Если посмотреть на историю формирования нынешнего турецкого литературного языка, то влияние на язык извне преимущественно наблюдалось в период до 20-х годов XX века. До сих пор турецкий язык, переживший множество испытаний и различных реформ, вступил в новую эпоху в результате «Языковой революции», занявшей важное место среди множества серьезных реформ в обществе после образования Республики Турция. В данной статье говорится об аффиксах, заимствованных из западных языков в журналистских терминах в турецком языке.

Ключевые слова: аффиксы, заимствования, термин, греческий алфавит, турецкий алфавит, журналистика.

Abstract. Looking at the history of the formation of the current Turkish literary language, the influence of the outside on the language was mainly observed in the period up to the 20s of the 20th century. Until now, the Turkish language, which has experienced many trials and various reforms, entered a new era as a result of the "Language Revolution", which took an important place among the many serious reforms implemented in society after the establishment of the Republic of Turkey.

This article talks about the affixes adopted from Western languages in Turkish journalism terms.

Key words: *affixes, acquisitions, greek alphabet, Turkish alphabet, journalistic term.*

Turk tili aglutinativ til bo‘lgani uchun so‘z yasash va yasashda doimiy ravishda qo‘shimchalardan foydalanadi. Turk tilida prefikslar mavjud emas. Turk tili o‘z tarixi davomida chet tillari ta’sirida bo‘lgan va arab va fors, keyinchalik frantsuz va ingliz kabi tillardan ko‘plab so‘zlarni o‘zlashtirgan. Bu so‘zlar orasida prefiksli so‘zlar ham bor. Bu holat turkiy tilda old qo‘shimcha so‘zlarning qo‘llanilishiga olib keldi. Bundan tashqari, xorijiy so‘zlarga ekvivalent topish bo‘yicha tadqiqotlarda qo‘shma so‘zlarni turkiy tiliga o‘girishda qo‘shma so‘z yasash usuli ham qo‘llanilgan. Turk tilidagi bu qo‘shma so‘zlar ba’zan old qo‘shimchali so‘zlar sifatida qabul qilinib, turk tilida old qo‘shimchalar bormi, degan savol tug‘iladi.

G‘arb tillaridan turkchaga kirgan va bugungi kunda ham taraqqiyot ehtiyojidan kelib chiqqan holda kirishga davom etayotgan so‘z va atamalar, birikmalardagi affikslar masalasiga kelganda, ularning ko‘pchiligi muayyan bir sohaga oid ekanini hisobga olish kerak. Ta’kidlangani kabi, so‘z va terminlarning asosiy qismi g‘arb tillaridan turkchaga fransuz va ingliz tillari vositasida kirgan. Ingliz tilining yoyilib ketganligi bu tildan boshqa tillarga so‘zlar o‘tishini ta’minlab kelmoqda. Ammo hozirgi paytda turk tilida qo‘llanib kelayotgan so‘zlarning katta qismini lotin va yunon tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tashkil etadi [1].

G‘arb tillaridan o‘tgan affikslar bugungi kunda nafaqat o‘sha g‘arbcha so‘zlarga, balki turkcha so‘zlarga ham qo‘shilib, yangi so‘zlar yasamoqda. Buning quyidagi ikki misolini ko‘rish mumkin. Bu juda samarador *-al*, *-el* (unli bilan tugagan so‘z negiziga *-s* ayiruvchi undoshi vositasida *-sal*, *-sel*) sifat yasovchi affikslaridir. Turk tiliga yunon tilidan kirib kelgan (quyida bu haqda batatsil so‘z yuritiladi) *-al*, *-el* qo‘shimchasining qo‘llanish sohasi juda ham keng: *sosyal*, *kültürel*, *legal* kabi g‘arbcha unsurlardan tashqari arabchadan o‘zlashgan *ulus-al*, *siyas-al* va sof turkcha *gelenek-sel*, *yer-el*, *bölge-sel* so‘zlari misolida ham buni yaqqol ko‘rish mumkin.

-aj affiksi (*dublaj*, *montaj*, *bagaj*, *tiraj* (gazeta va jurnallarning bositgan soni), *mesaj*) fransuz tilidan kirgan bo‘lsa, yunon alifbosining birinchi harfi, yo‘qlik, bo‘lishsizlikni ifodalovchi *an-* old qo‘shimchasi (*anonim*, *anomali*), yunonchadan fransuz tili vositasida o‘zlashgan, qarama-qarshi, zidlik ma’nosidagi *anti-* old qo‘shimchasi (*antidemokratik*, *antipati*), lotincha “ikki” ma’nosidagi *bi-* (*bilanço*), fransuzcha, “yo‘qlik, zidlik” ma’nosidagi *de-(de-des-; do)* qo‘shimchasi (*dejenere*, *deformasyon*), lotin tilidan “juft,ikki” ma’nosini bildiruvchi *di-* qo‘shimchasi (*diyalog*), “yozuv” ma’nosidagi *-graf* (*paragraf*, *bibliograf*, *demografi*, *monografi*), “fikr” ma’nosidagi *ide-* (*idealist*, *ideolog*, *ideoloji*), fransuzcha, biror narsaning

sifatini, oidligini ko‘rsatuvchi *-if* qo‘shimchasi (*dekoratif, sportif, objektif, subjektif*), asli lotincha, fransuzcha orqali o‘zlashgan *-ik* qo‘shimchasi (*-sal, -sel* qo‘shimchasiga sinonim) (*dinamik, akademik*), kasb-hunar otlari yasovchi (turk tilidagi *-ci, -cu* ot yasovchisiga sinonim bo‘lgan) *-ist* qo‘shimchasi (*realist, ekonomist, feminist*), fransuz tilidan kirgan, falsafiy, adabiy oqimni, u bilan bog‘liklikni bildiruvchi, turkchadagi *-cilik* qo‘shimchasiga sinonim bo‘lgan *-izm* qo‘shimchasi (*kemalizm* (otaturkchilik), *materyalizm*), asli lotincha, fransuzcha orqali turkchaga kirgan *ko-, kol-, kom-, kon-* qo‘shimchasi (*koalisyon, komisyon*) va h.k. Bunday qo‘shimchalardan yana o‘nlab keltirish mumkin [2].

Tarixan turklarning dunyo buyicha katta jo‘g‘rofik yer egallaganligi uchun ular turli xil millatlar bilan madaniy aloqalar olib borishgan. Natijada turk tili xitoy, ingliz, hind va ispan tillaridan keyin dunyodagi eng ko‘p so‘zlashiladigan tilga aylangan. Turk tiliga boshqa tillardan juda ko‘p so‘zlar kirgan [3]. Bu jarayon Onado‘luni bosib olish davrida boshlanib, hozirgi kungacha davom etmoqda. Xususan, kundalik hayotimiz bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar XX asrda qo‘llanila boshlangan. G‘arb tillari “flektiv” tillardir. Bu tillarda qo‘shimcha so‘z boshida, o‘rtasida yoki oxirida uchrashi mumkin. So‘z o‘zagi o‘zgarishlarga uchrab tanilmas holatga kelishi mumkin. Yuqorida ham ta’kidlangani kabi, g‘arb tillaridan tilimizga kirgan so‘zlarning katta qismini fransuz va ingliz tillaridan kirgan so‘zlar tashkil qiladi. Bu so‘zlarning ko‘p qismi lotincha va yunoncha o‘zakka egadir. Yevropa tillaridan turkchaga kirgan affikslarni quyidagicha guruholashtirish mumkin. Bular:

- lotinchada o‘zlashgan qo‘shimchalar;
- yunonchadan o‘zlashgan qo‘shimchalar;
- fransuzchadan o‘zlashgan qo‘shimchalar;
- inglizchadan o‘zlashgan qo‘shimchalar;
- italyanchadan o‘zlashgan qo‘shimchalar.

Lotinchadan o‘zlashgan qo‘shimchalar quyidagilardir:

Bi - “ikki” ma’nosini bildiradi. Turk tilida bir nechta so‘zda ishlatilib kelinmoqda: *bilanco* (savdo holatini ko‘rsatadigan ro‘yxat) – *balans*; *bibliyografi* (bir mavzuga oid kitoblar ruyxati) - *bibliografiya*, *bibliyofil* (kitobsevar) - *bibliofil*, *bibliyotek* (kitob saqlanadigan joy) – kutubxona va h.k.

Di - “juft,ikki” ma’nosini bildirgan bu lotincha old ko‘shimcha ko‘magida yasalgan suzlarning hammasi turk tilida atama sifatida ko‘llanib kelinmoqda: *diyalog* (ikki yoki undan ortiq kishining so‘zlashuvi) va h.k.

-er - lotincha o‘zakka ega bo‘lgan bu qo‘shimcha hozirda fransuz, ingliz tillarida ham qo‘llanmoqda. Bu ko‘shimcha bir ishni bajaruvchisi yoki shug‘ullanuvchini bildiradi: *tekniker* (texnika bilan shug‘ullanuvchi) - *texnik*, **banker** (bankda ishlovchi) - **bankir, stajyer** (amaliyot o‘tayotgan shaxs) – *stajer* va h.k.

-ist - bu qo'shimcha yordamida, asosan, kasb-hunar otlari yasalgan: **radikalist** – *radikaliste*, **feminist** – *feministe* va hok. Bu qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar turk tilida **-ci** (*si*, *sü*, *cu*, *çi*, *çı*, *çü*, *çu*) ot yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlar bilan bir xilda qo'llanadi, hatto ularning o'rmini almashtirsa ham bo'ladi: **realist** (realist) - *gerçekçi*, **ekonomist** (iqtisodchi, hisobchi)- *iktisatçı* va h.k. Juda samarador bo'lgan ushbu qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar qatnashgan bir nechta misol keltiramiz:

-ör - bu qo'shimcha aslida lotincha bo'lib, fransuz tilida turli ma'nolarni ifodalaydi. Turk tilida ham juda faol qo'llaniladi va kasb-hunar, bir ishni bajaruvchi, qiluvchi ma'nosida keladi: **provatör**, **diktatör**, **reportör** kabi.

re- – lotin tilidan kirgan bu old qo'shimcha "yangidan, qaytadan, takroran" ma'nolarida qo'llanadi: **redaksiyon** (tuzatish, to'g'rilash), **renesans** (yangidan tug'ilish) va h.k.

-siyon (-tion). Bu qo'shimcha turk tiliga lotin tilidan fransuz tili orqali kirgan bo'lib, ish-harakat nomlarini ifodalash uchun qo'llanadi. Uning asosiy vazifasi ishni ifodalashdir. Turkchada bu qo'shimchani fe'ldan ot yasovchi "**-ma**", "**-me**" qo'shimchasi bilan ifodalash mumkin, faqat hamma so'zlarni ham emas: **diksiyon** (so'zlash), **koordinasyon** (birgalikda boshqarish), **rezervasyon** (rezervatsiya, joy band qilish, oldindan zakaz qilish), **kominikasyon** (kommunikatsiya) va h.k.

-ik - bu qo'shimcha turk tiliga fransuz tili vositasida kirgan o'ta faol qo'shimcha bo'lib asli lotinchadir. Oidlikni ifodalovchi bu qo'shimchaning **-sal**, **-sel** varianti ham bor. Masalan: **dinamik** (harakatli), **akademik** (akademiyaga oid) va h.k.

Yunonchadan o'zlashgan qo'shimchalar quyidagilardir:

a - yunon tilidan fransuz tili vositasida turkchaga kirgan old qo'shimcha bo'lib, o'zi qo'shilgan so'zga bo'lishsizlik ma'nosini berib, yo'qlikni ifodalaydi. Turk tilida **-siz** bo'lishsizlik qo'shimchasi yoki "bo'lman" so'zi bilan ham qo'llasa bo'ladi. Masalan: **a-normal** (normal bo'lman), **a-sosyal** (ijtimoiylashmagan) va h.k.

alfa - yunon alifbosining ilk harfi bo'lgan bu harf ilmiyotda ham ishorat, ham "birinchi" ma'nosidagi so'z sifatida qo'llanilmoqda. Ba'zi manbalarda bu old qo'shimchaning yunon tiliga finikiychadan o'tganligi aytiladi. Masalan: **alfa kuşa-ğı** (internet davrida tug'ilgan va bunga mos harakat qiluvchi avlod).

an - old qo'shimchasi hozirda bir nechtagina so'zda qo'llanilmoqda. U ham bo'lishsizlik, yo'qlikni ifodalaydi. Masalan: **Anemi** (kamqonlik), **anonim** (nomi bo'lman), **anomali** (me'yordan tashqari) kabi.

anti- yunonchadan turk tiliga fransuz tili vositasida kirgan bo'lib, so'zning boshiga qo'shilib, qarshilik, zidlik ma'nosini bildiradi. Bu qo'shimcha nutqda juda faol ishlataladi: **antidemokratik** (demokratiyaga qarshi), **antipati** (bir narsani yoqtirmaslik, antipatiya) va h.k.

foto - bu ikkala qo'shimcha ham turkchaga yunon tilidan kirgan bo'lib, yorug'lik ma'nosini bildiradi: fotograf, fotojen (yorug'likni yaratgan, fotografiya), fotojenik (yoruglikning kelib chiqishiga oid), fotosintez (yorug'lik yordamida bo'ladigan sintez) kabi.

-graf - qo'shimchasi "grafika, yozuv" ma'nosini anglatadi. Turkchada juda faol ishlataladi: paragraf (yozuv bo'limi), bibliograf (kitoblar bo'yicha mutaxasis), demografi, monografi, radyografi, kardiyografi kabi. So'zlarning oxirida kelgan "I" qo'shimchasi ishni ifodalaydi.

-loji - yunon tili vositasida sanskrit tilidan turkchaga kirgan bu qo'shimcha hali ham dunyo tillarida qo'llanilmoqda. "So'z" ma'nosini bildirib, boshqa tillarda "bilim" ma'nosida so'zlarga qo'shiladi. Bu qo'shimchadan yasalgan ba'zi atamalar turkchalashtirilgan, ba'zilari o'z holida ishlatalmoqda: Pedagoji (ta'lim fani), mineralozi (minerallar to'g'risidagi fan), idealozi, ekoloji, grafoloji, hidroloji, patoloji, antoloji va hok.

mega - yunon tilida "katta" ma'nosini bildirgan bu so'z ba'zi atamalarda old qo'shimcha sifatida qo'llanilmoqda: megafon (ovozni balandlatish uchun qo'llanadigan asbob), megavat (bir million watt), mega proje va hok.

meta- - bu old qo'shimcha yunon tilidan kirgan bir nechta atamada uchraydi: metafizik, metamorfik, metaphor kabi.

mono - yunon tilida "yakka" ma'nosini bildirgan bu so'z-old qo'shimcha sifatida turk tilida ham keng qo'llanilmoqda: monoblok (bir blok), monoton, monolog, monografi kabi.

neo - yunon tilida "yangi" ma'nosini bildiradi: neoliberal, neo-faşist, neolitik va h.k.

oto - bu qo'shimcha yunon tilida "o'zi" ma'nosiga ega va uning vositasida yasalgan so'zlarning ko'pchiligi atama sifatida turk tilida qo'llanilib kelinmoqda: otomatik (o'z-o'zidan ishlaydigan), otobiyografik, otokritik va h.k.

pan - yunoncha bu qo'shimcha "butun" ma'nosini bildiradi: panorama, pangermanizm kabi.

par-, para- - bu qo'shimcha qo'shilgan so'z "yonida, qarshisida" ma'nolarini ifodalaydi, ularning ko'pi termin sifatida qo'llaniladi: paradoks (oddiy tushunchaga zid), parapsikologik va h.k.

poli - "ko'p" ma'nosini bildiruvchi bu old qo'shimcha atama sifatida ko'p qo'llanadi: poligraf (poligrafiya).

pro - bu qo'shimcha "oldinda" ma'nosini beradi: program (oldindan tayyorlangan jadval), prolog (kirish so'z) kabi.

sosyo - “do‘st“ ma’nosini bildirgan bu so‘z fransuz tilida o‘zgarishga uchrab, turk tiliga “jamoa”, “jamiyat” ma’nolarida qo‘llanilmoqda: soyete (jamiyat, oqsuyaklar), sosyoloji (ijtimoiy hayot bilan bog‘liq), va h.k.

tele -bu old qo‘sishimcha, “uzoq”, “uzoqdan” ma’nolarini bildirib, nutqda juda faoldir: telefon, telepati, teleskop, telefilm va hok.

Fransuz, ingliz va italyan tillaridan turk tiliga o‘zlashgan qo‘sishimchalar quyidagilardir:

de- (*de-;des-; do*). Bu qo‘sishimcha turkcha “yo‘qlik, zidlik” ma’nosida qo‘llangan: de-mode (modasi o‘tgan), de-jenere (tuzilishi noto‘g‘ri), deformasyon (shakli buzilgan), declare (e’lon qilish) kabi.

dubl- qo‘sishimchasi “juftlik” ma’nosini bildiradi va quyidagi so‘zlarda uchraydi: duble (aniq bir miqdorning qaytarilishi), dubleks (ikki qavatli), dublur, dublaj, dublive.

-e qo‘sishimchasi turk tiliga fransuzchadan kirgan bo‘lib ish-harakatni ifodalaydi. Turkchaga “-ma,-me” fe’ldan ish nomlarini yasovchi qo‘sishimcha yoki “-miş” sifat-fe’l qo‘sishimchalari yordamida tarjima qilish mumkin. Masalan: bloke (biror bir narsani qo‘llashni to‘xtatish), angaje (so‘z yoki yozuv orqali bog‘lanish), proje (loyiha), karikaturize (karikatura holatiga keltirish), stabilize (kukun holatiga keltirish) va h.k.

-ele, -et, -ite - turkchaga fransuz tilidan kirgan bu qo‘sishimcha “-lik” qo‘sishimchasi bilan turk tilida almashtirilishi mumkin. Abstrakt otlarni yasaydi. Masalan: Produktivite (natijali), realite (reallik), aktualite (kunning mavzusi), formalite (formallik) va hok.

-fer- qo‘sishimchasi “tashuvchi” ma’nosini bildiradi. Masalan: transfer (tashish, ko‘chirish) va hok. **-if** – bu qo‘sishimcha narsa yoki hodisaning sifatini, oidligini ko‘rsatadi: dekoratif (chiroyli), sportif (sportga uyg‘un), objektif (ob’ektiv), subjektif (sub’ektiv) va hok.

Pre – bu qo‘sishimcha o‘zi qo‘shilgan so‘zga “ilk, bиринчи“ degan ma’nolarni beradi. Masalan: preforme (ishlovni oldin bajarish), premature (vaqtidan oldin tug‘ilgan), prezентация (tanishtirish) va h.

Radio-. Bu old ko‘sishimcha va so‘z turli atamalarda uchraydi. Uning asosiy ma’nosи “bir markazdan atrofga tarqatish”dir. Masalan: radyofonik (radio bilan bog‘liq), radyolink va h.[4]

Xulosa. Darhaqiqat, turk tilida ajnabiy so‘zlar ko‘p bo‘lsa-da, ko‘pchiliginig turkcha muqobilari bor. Turk tilining ajralmas qismiga aylangan ayrim terminlarning muqobilari hali topilmagan. Til qonun-qoidalari asosida yangi so‘zlar yaratilib, xalq tomonidan qabul qilinmaguncha, bu so‘zlar turk tilida mehmon bo‘lib qolaveradi. Biroq turkchaga “aylanib” bo‘lgan ayrim so‘z va terminlarni til boyligidan olib tashlashning iloji yo‘q. Chunki turk tili va adabiyoti tarixi davomida bu so‘zlar –

turkiy muqobillari bilan birga asrlar davomida yasahab kelmoqda. Bizning qiladigan ishimiz, ularni chuqur tadqiq qilishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

- [1] – Журналистикага оид русча терминларининг ўзбекча изоҳли луғати (Тузувчилар: X.Ҳамидов, Ш.Хасанова). – Тошкент, 2022. – 140 б.
- [2] – Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9.Baskı. 1.-2.Cilt. –Ankara: 1998.
- [3] – Hamidov X., Karausta A. Turkchaga Fransuzchadan O‘Zlashgan Jurnalistikaga Oid Terminlar Tarjimasi Xususida, “O‘zbekistonda Zamonaviy Lug‘atshunoslik Va Tarjimashunoslikning Dolzarb Masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Andijon Davlat Chet Tillari Instituti, Andijon, 2023. B.205-206-207
- [4] – Turk tili (darslik). – Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi” DUK: 2022. – 382 bet.

